



The legal nature of the copyright agreement and its requirements

Maksud MUSTAFOEV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

15 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

copyright,
related rights,
property rights,
copyright agreement,
exclusive rights,
non-exclusive rights,
payment terms.

ABSTRACT

The article examines the civil-legal nature of copyright agreements under the legislation of the Republic of Uzbekistan. It explores the legal essence, structure, and form of copyright agreements, as well as the rights and obligations of the parties involved. Additionally, the article discusses the requirements that must be fulfilled by individuals who have agreed to enter into a copyright agreement.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss11/S-pp131-135>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mualliflik shartnomasining huquqiy tabiati va uning talablari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

mualliflik huquqi,
turdosh huquqlar,
mulkiy huquqlar,
mualliflik shartnomasi,
mutlaq huquqlar,
nomutlaq huquq,
haq to'lash shartlari.

Maqolada mualliflik shartnomasining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosidagi fuqarolik-huquqiy tabiati tahlil qilingan. Bunda mualliflik shartnomasining huquqiy tabiati, tuzilishi, shakli va undagi taraflarning huquq va majburiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada mualliflik shartnomasini tuzish bo'yicha kelishuvga erishgan shaxslar qanday talablarga rioya qilishlari kerakligi muhokama qilingan.

¹ Independent researcher, Tashkent State University of Law.

Правовая природа авторского договора и его требования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

авторское право,
смежные права,
имущественные права,
авторский договор,
исключительные права,
неисключительные права,
условия оплаты.

В статье анализируется гражданско-правовая природа авторского договора на основе законодательства Республики Узбекистан. Рассматриваются правовая сущность, структура и форма авторского договора, а также права и обязанности сторон, участвующих в его заключении и исполнении. Кроме того, исследуются требования, которые должны соблюдаться сторонами, достигшими соглашения о заключении авторского договора, с целью обеспечения его законности и эффективности.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda intellektual mulk, xususan, mualliflik huquqi muhofazasini ta'minlash va uning himoyasini kuchaytirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mualliflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, asarlardan muallifning ruxsatisiz foydalanishga chek qo'yish, mualliflik shartnomasi talablariga qat'iy rioya qilish kabi masalalar bilan uzviy bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekistonda mualliflik huquqini muhofaza qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish sohasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada, ayniqsa, mualliflik huquqini muhofaza qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish, asarlardan foydalanishda, ayniqsa mualliflik shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlarini qat'iy belgilashda qo'llanadigan turli vosita hamda usullarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishiga doir da'volar soni ko'payib bormoqda. Badiiy asarlarni, audiovizual asarlarni himoya qilish amaliyoti, ya'ni ushbu huquqlar doirasida sudlarda ko'rib chiqilgan ishlar mualliflar huquqlarini himoya qilish masalasi asosiy ustuvor yo'nalishga aylanib borayotganini ko'rsatmoqda.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, intellektual mulk sohasida 2020-yilda 65 ta, 2022-yilda 550 dan ortiq sud protsesslari bo'lib o'tgan. Mazkur sohadagi huquqbuzarliklar soni 2020-yilda 81 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 887 ta, 2022-yilga borib esa 1006 tani tashkil qilgan. Xususan, mazkur sudlarda ko'rilgan ishlarning 42 tasi bevosita mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Bu mualliflar o'zlarining huquqlarini talab qilish ko'rsatgichi yildan-yilga oshib borayotganini anglatadi. Biroq, shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar mualliflik huquqlarini himoya qilish sohasida hali qilinadigan ishlar anchagina ekanligidan ham dalolat beradi.

Shu sababli ushbu maqola asosida mualliflik shartnomasi nima ekanligi, uning huquqiy tabiati qandayligi, undagi taraflarning huquq va majburiyatlari hamda uning majburiy talablari nimalardan iboratligi haqida batafsil muhokama qilamiz.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra, mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- yozma (qo'lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo);
- og'zaki (omma oldida so'zlash, omma oldida ijro etish va hokazo);
- ovoqli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamli, optik va hokazo);
- tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va hokazo);
- hajmli-fazoviy (haykal, model, maket, inshoot va hokazo);
- boshqa shakllardagi.

Sanab o'tilgan obyektlar mualliflik huquqi bilan himoyalangani. Bunda g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etilmaydi.

Yuqorida keltirilgan obyektlar bo'yicha bir necha xil shartnomalar tuzilishi mumkin. Ulardan biri mualliflik shartnomasi hisoblanadi.

Mualliflik shartnomasi – muallif o'z mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga mutlaq yoki mutlaq bo'lmagan tarzda o'tkazishni nazarda tutuvchi shartnoma hisoblanadi. Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

Asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish bo'yicha mutlaq huquqlar muallifga tegishlidir. Yuridik va jismoniy shaxslar asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin.

Mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi mualliflik shartnomasi faqat ushbu huquqlar o'tkazilayotgan shaxs asardan muayyan usulda va shartnomada belgilangan doirada foydalanishiga ruxsat beradi.

Mutlaq bo'lmagan hollarda esa huquq egasi bir nechta huquqni o'zida qoldiradi yoki barcha foydalanuvchilar uchun teng imkoniyatlar beriladi, deyishimiz mumkin. Ya'ni bunday turdagi mualliflik shartnomasi foydalanuvchiga asardan shunday huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazgan mutlaq huquqlar egasi yoki ruxsat olgan boshqa shaxslar bilan teng ravishda foydalanishga ijozat beradi. Masalan, mutlaq bo'lmagan huquqlarni o'tkazish bo'yicha shartnomada muallif ikkinchi tarafga faqatgina asarni tarjima qilish yoki ko'paytirish huquqini taqdim etishi mumkin.

Muallifning asardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlari quyidagi harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarga ruxsat berish huquqini anglatadi:

- asarni takrorlash (takrorlash huquqi);
- asarning asl nusxasini yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan tarqatish (tarqatish huquqi);
- asarni barchaning e'tiboriga yetkazish (barchaning e'tiboriga yetkazish huquqi);
- asarning asl nusxasini yoki nusxalarini prokatga berish (prokatga berish huquqi);
- tarqatish maqsadida asarning nusxalarini, shu jumladan mutlaq mualliflik huquqlari egasining ruxsati bilan tayyorlangan nusxalarini import qilish (import qilish huquqi);
- asarni sim (kabel) orqali yoki boshqa shu kabi vositalar yordamida uzatish yo'li bilan barchaning e'tibori uchun yuborish (kabel orqali yuborish huquqi);

- asarga tuzatishlar kiritish, uni aranjirovka qilish yoki boshqacha tarzda qayta ishlash (qayta ishlash huquqi);
- asarni omma oldida namoyish etish (omma oldida namoyish etish huquqi);
- asarni omma oldida ijro etish (omma oldida ijro etish huquqi);
- asarni simsiz vositalar yordamida uzatish yo'li bilan barchaning e'tibori uchun yuborish (efirga uzatish huquqi);
- asarni tarjima qilish (tarjima qilish huquqi);
- asarni barchaning e'tiboriga takroran yuborish, agar bunday yuborish dastlabki yuborishni amalga oshirgan tashkilotdan boshqa tashkilot tomonidan amalga oshirilsa (barchaning e'tiboriga takroran yuborish huquqi).

Muallif o'z asaridan foydalanishning har bir turi uchun haq olish huquqiga ega. Agar chop etilgan asarning nusxalari ularni sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish orqali fuqarolik muomalasiga qonuniy kiritilgan bo'lsa, ularni kelgusida muallifning roziligisiz va unga haq to'lamasdan tarqatishga yo'l qo'yiladi.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunning 38-moddasida mualliflik shartnomasi va unga doir talablar belgilangan. Mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

❖ asardan foydalanish usullari (shartnoma asosida o'tkaziladigan aniq huquqlar doirasi);

❖ asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori yoki to'lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, shuningdek, uni to'lash tartibi hamda muddatlari.

Mualliflik shartnomasida taraflar o'zlari uchun zarur deb topgan boshqa shartlarni ham nazarda tutishlari mumkin.

Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi qancha muddatga o'tkazilishi to'g'risida shart bo'lmasa, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 5 yil o'tganidan keyin, agar foydalanuvchi kamida olti oy oldin bu haqda yozma ravishda ogohlantirilgan bo'lsa, shartnoma muallif tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish huquqi amal qiladigan hudud doirasi to'g'risida shart bo'lmagan taqdirda, shartnomaga asosan o'tkazilayotgan huquqning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi hududi bilan cheklanadi.

Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish bo'yicha huquqlar boshqa shaxsga o'tkazilishi to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsa, bu huquqlar o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

Shartnoma tuzilgan paytda asardan foydalanish haqida hali ma'lum bo'lmagan huquqlar mualliflik shartnomasi predmeti bo'lishi mumkin emas.

To'lanadigan haq mualliflik shartnomasida asardan foydalanishning tegishli usuli uchun olinadigan daromadidan foiz tarzida belgilanadi. Agar buni asarning xususiyati yoki undan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq holda amalga oshirish mumkin bo'lmasa, shartnomada qayd etilgan summa tarzida belgilanadi.

Agar asarni nashr etish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish haqidagi mualliflik shartnomasida haq to'lash qat'iy summa tarzida belgilansa, shartnomada asarning eng ko'p adadi belgilab qo'yilishi shart.

Mualliflik shartnomasining muallifni kelgusida mazkur sohada yana boshqa asarlar yaratishini cheklaydigan sharti o'z-o'zidan haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

Mualliflik shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni umuman yoki tegishli darajada bajarmagan taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararining o'rnini, shu jumladan boy berilgan foydani qoplashi shart.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini, xususan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning himoyasi va uni rivojlantirish yo'lida keng ko'lamda ishlar amalga oshirilmoqda. Bularni o'z isbotini yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlardan bilish mumkin. Biroq mana shu kabi yuqori darajadagi harakatlarga qaramay, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida hali ham mavjud kamchiliklar va turli xil huquqbuzarliklarda o'z aksini topmoqda. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun shu sohaga doir jahon shartnoma va konvensiyalarini qabul qilish va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini amaliy tahlil etgan holda ularning yutuqli tajribalarini o'z qonunchiligimizga tatbiq etish lozim.

Shu bilan birga, mualliflar har qanday shakldagi shartnomalarni imzolashdan oldin ularning huquqlari yetarli darajada himoyalanganligini va ular rozi bo'lgan shartlarni to'liq tushunishlari kerak. Bunda mualliflar va boshqa foydalanuvchilar mualliflik huquqi shartnomalariga o'z yechimlarni kiritish orqali har ikki tomonning manfaatlarini himoya qiluvchi o'zaro manfaatli shartnomalar yaratishlari maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси – Т.; “Адолат” нашриёти, 2015. – 153-б.
3. О'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonuni. 20.07.2006-yildagi O'RQ-42-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 28-29-son, 260-modda. <https://lex.uz/docs/-1022944>
4. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул муҳаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Оқюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2019. – 588 бет.
5. Сафоева С.М. Интеллектуал мулк объектларидан тижорат муомаласида фойдаланишнинг ҳуқуқий шакллари. Ўқув қўлланма / ю.ф.д. проф. С.С.Гулямовнинг таҳрири остида. – Т.:2009. – 108б.
6. Yakubova I. Mualliflik huquqi. Darslik.–Toshkent: TDYU, 2020.–50b.
7. А.Юлдашов. “Муаллифлик ҳуқуқини халқаро доирада муҳофаза қилишнинг муҳим жиҳатлари ва шартномавий-ҳуқуқий базани ривожлантириш”. Юридик фанлар ахборотномаси – Вестник юридических наук – Review of law sciences. Махсус сон. 2020 й. 231-б.
8. <https://lex.uz/>
9. <https://im.adliya.uz/>
10. <https://parliament.gov.uz/>